



A LOOK AT THE HISTORY OF THE RESEARCH INSTITUTE OF TRAUMATOLOGY AND ORTHOPEDICS

Bekzod Shukhratovich Toshpulatov

PhD, Associate Professor

University of Economics and Pedagogy

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: healthcare system, bone and joint diseases, traumatology, orthopedics, history of medicine, research institutions, research institute, medical science.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This article analyzes the historical processes of the establishment and development of medical research institutions in Uzbekistan during the second half of the twentieth century. The history of the formation and development of medical research institutions in Uzbekistan is examined through the example of the Research Institute of Traumatology and Orthopedics.

TRAVMATOLOGIYA VA ORTOPEDIYA ILMIY-TEKSHIRISH INSTITUTI TARIXIGA NAZAR

Bekzod Shuxratovich Toshpulatov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, PhD

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Sogʻliqni saqlash tizimi, suyak-boʻgʻim kasalliklari, travmatologiya, ortopediya, tibbiyot tarixi, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy-tekshirish instituti, tibbiyot fani.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda tibbiyot yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari shakllanishi va rivojlanishining tarixiy jarayonlari tahlil qilinadi. Bu davrda O'zbekistonda tibbiyot yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining shakllanishi va rivojlanish tarixi travmatologiya va ortopediya ilmiy-tekshirish instituti misolida tahlil qilinadi.

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО ИНСТИТУТА ТРАВМАТОЛОГИИ И ОРТОПЕДИИ

Бекзод Шухратович Тошпулатов

Доцент Университета экономики и педагогики, PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: система здравоохранения, заболевания костей и суставов, травматология, ортопедия, история медицины, научно-исследовательские учреждения, научно-исследовательский институт, медицинская наука.</p>	<p>Аннотация: В данной статье анализируются исторические процессы становления и развития научно-исследовательских учреждений медицинского профиля в Узбекистане во второй половине XX века. История формирования и развития научно-исследовательских учреждений в области медицины рассматривается на примере Научно-исследовательского института травматологии и ортопедии.</p>
--	---

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi O‘zbekistonda tibbiyot sohasida, xususan, travmatologiya va ortopediya yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda urushdan keyingi tiklanish jarayonlari natijasida sog‘liqni saqlash tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, ixtisoslashgan tibbiy yordamni kengaytirish va uni ilmiy asosda tashkil etishga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, sanoatlashuv jarayonlarining kuchayishi, ishlab chiqarishda jarohatlar sonining ortishi travmatologiya va ortopediya xizmatlarini rivojlantirishni dolzarb vazifaga aylantirdi.

Mazkur sharoitda Travmatologiya va ortopediya ilmiy-tadqiqot instituti nafaqat klinik-amaliy markaz, balki sohada ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtiruvchi yetakchi muassasa sifatida faoliyat yuritdi. Institut doirasida yangi diagnostika va davolash usullari ishlab chiqilib, ularni amaliyotga joriy etish, shuningdek, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashga qaratilgan tizim shakllantirildi. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlar bilan amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlab, soha rivojiga kompleks yondashuvni yuzaga keltirdi[1].

Asosiy qism. Ikkinchi jahon urushi yakunlanishi bilan mamlakat hayotida tinchlik va tiklanish davri boshlandi. Urush oqibatlarini bartaraf etish, xalq xo‘jaligini qayta tiklash bilan bir qatorda, ilmiy-tadqiqot muassasalarini qayta faollashtirishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Shu sharoitda travmatologiya va ortopediya sohasidagi ilmiy markazlarni tiklash dolzarb vazifaga aylandi. Xususan, 1945 yilda SSSR va O‘zbekiston SSR hukumat qarorlari hamda Sog‘liqni saqlash xalq komissariatining tegishli buyruqlari asosida 1946 yil 1 yanvardan Toshkent shahrida joylashgan tiklovchi jarrohlik respublika shifoxonasi negizida Travmatologiya, ortopediya va protezlash ilmiy-tadqiqot instituti qayta tashkil etildi[2].

Urushdan keyingi davrda institut nafaqat qayta tiklandi, balki uning tashkiliy va ilmiy salohiyati bosqichma-bosqich kengaydi. Ilk rahbar sifatida professor B.I. Berliner tayinlanib, u

muassasaning ilmiy va amaliy faoliyatini tiklashda muhim rol o'ynadi. Keyingi yillarda respublika hududlarida travmatologik xizmatni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqand, Andijon, Buxoro, Farg'ona, Termiz, Qarshi, Urganch, Namangan va Nukus shaharlarida, shuningdek Qo'qon, Jizzax, Yangiyul, Kattaqo'rg'on, Chirchiq kabi yirik aholi punktlarida ixtisoslashgan travmatologiya bo'limlari tashkil etildi. Shu bilan birga, ayrim shahar shifoxonalarida 15–20 o'rinli maxsus travmatologik palatalar tashkil qilinib, ular uchun mutaxassis kadrlar institut bazasida tayyorlandi[3].

Institutning keyingi rivojlanish bosqichida uning institutsional maqomi va moddiy-texnik bazasi yanada mustahkamlandi. 1966 yilda muassasa rasman O'zbekiston travmatologiya va ortopediya ilmiy-tadqiqot instituti (O'zNIITO) deb nomlandi. 1983 yilda esa institut yangi, zamonaviy talablarga javob beradigan binoga ko'chirildi. Bu o'zgarishlar uning faoliyatini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qildi[4].

Ushbu davrda institut nafaqat respublika, balki Markaziy Osiyo va Qozog'iston hududlari uchun ham travmatologiya, ortopediya va protezlash sohasida tashkiliy-metodik markaz vazifasini bajardi. Ayniqsa, urushda jabrlangan nogironlarni davolash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha olib borilgan ishlar muassasaning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirdi. Shu tariqa, urushdan keyingi davr travmatologiya va ortopediya ilmiy-tadqiqot tizimining tiklanishi va barqaror rivojlanish bosqichi sifatida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi davr travmatologiya va ortopediya sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmun va yo'nalishini tubdan o'zgartirdi. 1941–1945 yillarda yuz bergan harbiy harakatlar natijasida oporno-harakat tizimiga oid og'ir jarohatlar soni keskin oshdi. Bu esa tibbiyot amaliyotida yangi klinik muammolarni hal qilishni taqozo etdi. Ushbu davrda O'zbekiston hududida ko'plab evakuatsiya gospitalari tashkil etildi va ularda S.A. Novotelnov, M.D. Mixelson, N.N. Bogoraz, M.S. Astrov, I.I. Orlov kabi yetakchi mutaxassislar faoliyat yuritdilar. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi harbiy jarohatlarni, ayniqsa ularning asoratlarini — o'q-otishdan kelib chiqqan osteomiyelit, soxta bo'g'imlar, suyak nuqsonlari va amputatsiya kulyalari kasalliklarini samarali davolash usullarini ishlab chiqishga qaratildi[5].

Urushdan keyingi ilk yillarda mazkur tadqiqot yo'nalishlari yanada chuqurlashtirilib, 1946–1950 yillarda institut olimlari jarohat oqibatlarini bartaraf etish va bemorlarning mehnat qobiliyatini tiklash masalalari ustida tizimli ish olib bordilar. Xususan, o'q-otish osteomiyeliti, noto'g'ri bitgan sinishlar, suyak defektlari va soxta bo'g'imlarni davolash muammolari keng qamrovli klinik va laborator tadqiqotlar asosida o'rganildi. Shu bilan birga, jarohatlarda mikroflora xususiyatlari va uning davolash natijalariga ta'siri alohida tadqiq etildi. Nerv tizimi

shikastlanishi oqibatida yuzaga kelgan trofik yaralar va uzoq bitmaydigan jarohatlarni davolash masalalari ham dolzarb yoʻnalishlardan biriga aylandi[6].

Bu davrda institutda ilmiy faoliyatning amaliy natijalari muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, yuz-jagʻ jarrohligi boʻlimida mahalliy toʻqimalar va koʻchirma (migratsiya qiluvchi) loskutlardan foydalangan holda yuz nuqsonlarini bartaraf etishning yangi usullari ishlab chiqildi. Ilmiy ishlanmalar natijalari sifatida 1947 yilda institut faoliyatiga bagʻishlangan ilmiy toʻplamlar va monografiyalar nashr etildi. 1948 yilda esa Markaziy Osiyoda ikkinchi jahon urushi nogironlarini davolashga bagʻishlangan ilk mintaqaviy ilmiy konferensiya oʻtkazilib, unda tashkiliy va klinik masalalar keng muhokama qilindi.

1950-yillar boshlarida ilmiy tadqiqotlar yanada ixtisoslashib, amputatsiya kulyalarining funksional samaradorligini oshirish, protezlash usullarini takomillashtirish hamda suyak plastikasi sohasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratildi. Shu bilan birga, sharq tabobati tajribasi asosida sinish va chiqishlarni davolash usullarini oʻrganishga ham alohida eʼtibor berildi. Bu tadqiqotlar natijalari qator dissertatsiya ishlarida oʻz ifodasini topdi[7].

1956–1960 yillarga kelib, ilmiy izlanishlarda yangi bosqich boshlanib, sanoat, qishloq xoʻjaligi va sportda yuzaga keladigan jarohatlarni oʻrganish va ularning oldini olish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, poliomyelit oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan ortopedik operatsiyalar — boʻgʻimlarni barqarorlashtirish va mushak-pay plastikasi usullari ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida tayanch-harakat tizimi faoliyatini tiklashga xizmat qiluvchi samarali klinik yechimlar yaratildi.

Ayniqsa, 1950-yillar oxirida ilk bor biologik faol moddalardan foydalanish yoʻnalishi shakllanib, suyak sinishlarining bitishini tezlashtirish maqsadida mumiye moddasining taʼsiri oʻrganila boshlandi. Bu tadqiqotlar institutsional jihatdan yangi ilmiy yoʻnalishlarning paydo boʻlishiga zamin yaratdi.

1960-yillar davri travmatologiya va ortopediya sohasida ilmiy tadqiqotlar mazmunining kengayishi va ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Xususan, 1961–1970 yillarda jarohatlar va travmatizm muammolari bilan bir qatorda tayanch-harakat tizimining tugʻma va orttirilgan deformatsiyalarini davolash masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Professor N.M. Shamatov rahbarligida respublikada bolalar oʻrtasida ushbu kasalliklarni erta aniqlash va davolash tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha keng qamrovli tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Barcha viloyatlarda maktab va maktabgacha taʼlim muassasalarida ommaviy profilaktik koʻriklar oʻtkazilib, bolalar oʻrtasida ortopedik patologiyalarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratildi.

Institut xodimlari tomonidan olib borilgan koʻp yillik tadqiqotlar natijasida skolioz va boshqa ortopedik kasalliklarga chalingan bolalarni davolash va rehabilitatsiya qilish boʻyicha

samarali tizim shakllantirildi. Bu esa respublika hukumati tomonidan 12 ta ixtisoslashgan maktab-internatlarni tashkil etishga asos bo'ldi. Shu bilan birga, aholini ommaviy tekshirish natijalari asosida travmatologiya va ortopediya yordamiga bo'lgan ehtiyoj meyorlari ishlab chiqildi (A.Y. Semenyuta), bu esa soha xizmatini rejalashtirish va tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etdi[8].

Mazkur davrda O'zNIITOning o'tkir jarohatlarni davolash sohasidagi ilmiy izlanishlari ham yetakchi o'rin tutdi. Institut klinikalarida zamonaviy diagnostika va davolash usullari joriy qilinib, ayrim xususiy muammolar bo'yicha maxsus tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, to'piq sohasi sinishlarini sindesmoz uzilishi bilan birga davolash (T.E. Ungbayev), bolalarda tirsak bo'g'imi sinishlarini davolash samaradorligi (M.A. Loboza, T.N. Shermuxamedov), hamda transartikulyar fiksatsiya usullarini qo'llash (S.M. Mannanov) bo'yicha ishlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar natijalari nomzodlik dissertatsiyalari shaklida himoya qilindi.

Shu bilan birga, markaziy asab tizimi zararlanishi bilan bog'liq harakat buzilishlarini davolash masalalari ham ilmiy izlanishlar doirasiga kiritildi. Serebral spastik falaj bilan og'riqan bemorlarni kompleks ortopedik davolash va hisobga olish ishlari (B.V. Shavarin, M.K. Orlova) natijasida Toshkent shahrida Respublika bolalar psixonevrologik dispanserini tashkil etishga asos yaratildi. Bu muassasada ambulator sharoitda kompleks davolash usullari, jumladan konservativ va jarrohlik usullari samarali qo'llanildi[9].

Ilmiy tadqiqotlar natijalari kadrlar tayyorlash tizimida ham o'z aksini topdi. 1961–1965 yillarda institutda 8 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan bo'lsa, 1966–1970 yillarda ularning soni 16 taga yetdi, shuningdek, 2 ta doktorlik dissertatsiyasi (O.SH. Shakirov, A.R. Mansurov) muvaffaqiyatli himoya qilindi. Bu holat institutning ilmiy maktab sifatida shakllanganini va uning respublika tibbiyot ilmidagi yetakchi o'rnini yanada mustahkamlaganini ko'rsatadi[10].

Umuman olganda, 1960-yillar travmatologiya va ortopediya ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmunan chuqurlashuvi, profilaktika, diagnostika va davolashning kompleks tizimi shakllanishi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonining faollashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur davr soha rivojida muhim institutsional va ilmiy bosqich sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Travmatologiya va ortopediya ilmiy-tekshirish instituti O'zbekistonda tibbiyot ilm-fanining rivojlanishida muhim o'rin tutgan ilmiy va amaliy markazlardan biri hisoblanadi. Institut faoliyati mamlakatda travmatologiya va ortopediya sohasining shakllanishi, suyak-bo'g'im kasalliklarini tashxislash va davolash usullarini takomillashtirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish hamda malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, institut o'z faoliyati davomida ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy tibbiyot o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlab, respublika sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan. Bu yerda yaratilgan ilmiy maktablar, olib borilgan fundamental va amaliy tadqiqotlar, shuningdek, davolashning innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish natijasida travmatologik va ortopedik yordam sifati sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, institut faoliyati nafaqat tibbiyot fanining rivojiga, balki aholi salomatligini mustahkamlash, nogironlikning oldini olish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qilgan. Institut negizida shakllangan ilmiy salohiyat va tajriba bugungi kunda ham ushbu yo'nalisdagi ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlar faoliyatida davom etmoqda.

Demak, Travmatologiya va ortopediya ilmiy-tekshirish instituti tarixi O'zbekistonda tibbiyot ilm-fanining taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba bo'lib, uning faoliyatini o'rganish milliy sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Травматология : национальное руководство / под ред. Г.П. Котельникова, С.П. Миронова. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2008.
2. Берлинер Б.И. Очерки работы эвакогоспиталей Узбекской ССР — Ташкент, 1947.
3. <https://uzniito.uz/about>
4. <https://uzniito.uz/about>
5. <https://uzniito.uz/about>
6. Травматология и ортопедия Узбекистана: прошлое, настоящее и будущее // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. – 2012. – 15 июнь. – № 23 (888).
7. Травматология и ортопедия Узбекистана: прошлое, настоящее и будущее // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. – 2012. – 15 июнь. – № 23 (888).
8. Травматология и ортопедия Узбекистана: прошлое, настоящее и будущее // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. – 2012. – 15 июнь. – № 23 (888).
9. Травматология и ортопедия Узбекистана: прошлое, настоящее и будущее // Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. – 2012. – 15 июнь. – № 23 (888).
10. <https://uzniito.uz/about>